



**PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE FERGANA ECONOMIC
GEOGRAPHICAL REGION**

FARG'ONA IQTOSODIY GEOGRAFIK RAYONINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Marjona Elmurod qizi

Students of the Faculty of Natural Sciences Andijan State University

abdugopurovsho33@gmail.com

Abdugofurov Shokhjakhon Muxammadqobul o'g'li

Student of the Faculty of Socio-Economics

mcsultan19980728@gmail.com

Mahmudjonov Ibrohimjon

mahmudjonovibrohimjon727@gmail.com

Anotatsiya

Aholi joylashuvining qadimiy va zich rayonlaridan biri Farg'ona vodiysi uch tamonda Pomir-Oloy, Tyanshan, va Farg'ona tizmalari bilan o'ralgan. Mintaqaning ichki tabiiy - iqtosodiy jihatdan yaxlitligi sersuv daryo va soylari mineral resurslari va ishlab chiqarish kuchlarining mujassamlashuvi ko'plab aholi manzilgohlarining to'planishiga asos bo'lgan. Maydoni uncha katta bo'lmagan vodiya hududi respublika maydonining atiga 4 foizini tashkil qiladi. Ushbu maqolada Farg'ona iqtisodiy geografik rayonining rivojlantirish istiqbollari haqida batafsil yoritilgan.

Annotation

The Fergana Valley, one of the most ancient and densely populated areas, is surrounded on three sides by the Pamir-Alay, Tianshan, and Fergana ridges. In a small valley, the area is only 4% of the country's area. This article describes in detail the prospects for the development of the Fergana economic geographical region.

Аннотация. Ферганская долина, один из древнейших и густонаселенных районов, с трех сторон окружена Памиро-Алайским, Тянь-Шанским и Ферганским хребтами, площадь небольшой долины составляет всего 4% площади страны. В данной статье подробно рассматриваются перспективы развития Ферганского экономико-географического района.

Keywords. Fergana economic geographical region, Andijan, GDP, Namangan, Fergana,

Kalit so'zlar. Farg'ona iqtisodiy geografik rayoni, Andijon, YAIM, Namangan, Farg 'ona,



Ключевые слова. Ферганская экономико-географическая область, Андижан, ВВП, Наманган, Фергана,

Kirish

Mamlakat iqtisodiy salohiyatining 28.5 foizini va shahar manzilgohlarining 35.1 foizi mujassamlashgan. Demak bu yerda umumiy ijtimoiy iqtisodiy zichlik respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan 7.5 marta ziyod. Farg'ona iqtisodiy geografik rayoni tarkibiga O'zbekiston Respublikasining Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari kiradi. Maydoni 18.4 ming km² yoki mamlakat hududining 4.1 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiy geografik rayon O'zbekistonning sharqiy qismida Farg'ona botig'ida joylashgan bo'lib shimol sharq va janubdan Qirg'iston Respublikasining Jalolobod, O'sh va Batken viloyatlari bilan janub va janubi-g'arbda Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan shimoli g'arbda Toshkent viloyati bilan chegaralanadi. Rayonni deyarli to'rt tomonini shimol shimol-g'arb va sharqda Qurama Chotqol va Farg'ona janubda Turkiston va Oloy tog' tizmalari o'rab turadi. Iqtisodiy tuman hududidan Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lgan Sirdaryo oqib o'tadi. Vodiyning markaziy qismlarida balandlik dengiz sathidan 400-500 metrni tashkil qiladi atrofqa qarab ko'tarilib boradi.

Asosiy qism. Maydoni nisbatan kichik lekin aholi soni ko'p va nihoyatda zich joylashgan ushbu hududning iqtisodiy tuman shaklda ajratilishi eng avvalo uning geografik o'rni va demografik salohiyati bilan tavsiflanadi. Bu iqtisodiy geografik rayon hosil qiluvchi barcha omillar mujassamlashgan bo'lib asosan paxta, don, pilla, sabzavotlar rezavorlar poliz bog'dorchilik uzumchilik chorva ipakchilik asalarichilik baliqchilik sohalari yaxshi rivojlangan. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki mintaqqa iqtisodiyotini rivojlangan agrosanoat majmuasi tashkil qiladi. Undan tashqari iqtisodiy tumanda avtomobilsozlik kimyo neft, neft kimyosi yengil sanoat tarmoqlari qurilish materiallari oziq ovqat farmasevtika va boshqa ko'plab tarmoqlar rivojlangan. Farg'ona iqtisodiy geografik rayoni mamlakat yalpi ichki mahsulotini 23.7 foiz sanoat ishlab chiqarishni 1/5 va qishloq xo'jaligi mahsulotini 30 foizini yaqinini beradi. Vodiyn qadimdan paxtachilik va pillachilik bilan shug'ullanib kelishgan bunga uning geografik o'rni Buyuk ipak yo'lida joylashganligi qulay tabiiy sharoitga egaligi sabab bo'lgan. Hududning aynan ana shunday tranzitlik xususiyati o'tmishda bu yerda xohajlik va madaniyatining rivojlanishi taminladi. Transkontinental magistral yo'llarining barpo bo'lishi ishga tushirilishi iqtisodiy geografik rayonning rivojlanishiga olib keladi. Bilamizki Farg'ona iqtisodiy geografik rayoni Farg'ona Andijon Namangan viloyatlarini o'z ichiga oladi. Ularni rivojlantirish viloyatlar ichidagi qaloq tumanlarni rivojlantirish qishloq xo'jaligidan ko'ra sanoatni ustunligini oshirish lozim. Farg'ona viloyati O'zbekistonda eng oldin tashkil etilgan viloyatlardan biri hisoblanadi. U 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan Uning tarkibida 15 ta qishloq tumanlari Bog'dod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Qo'shtepa, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, Quva va O'zbekiston tumanlari kiradi. Maydoni 6.76 ming km² aholisi 3683.3 ming kishi viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri aholisi 283.8 ming kishi. Farg'ona viloyatini sanoatiga to'xtaladigan bo'lsak ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari mavjud va u ancha shakllangan ko'p yo'nalishli hududiy iqtisodiy majmua sifatida tariflash mumkun. Qolaversa bu yerda



O'zbekistonda birinchi bo'lib qurilgan talaygina ishlab chiqarish korxonalari bor; Farqona to'qimachilik issiqlik elektr stansiyasi Oltiariq neftni qayta ishlash, Qo'qon superfosfat, Marg'ilon ipakchilik kabi sanoat korxonalari shular jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligida eng avvalo paxta pilla meva yetishtirishda katta tajribaga ega. Mustaqillik yillarida xo'jalikni turli sohalarini jadal rivojlanadi. Sanoat ishlab chiqarish 2018- yilda 109.3 foiz ga teng bo'ladi. Qishloq xo'jaligida mahsulotlarini ishlab chiqarish 106.7 foizni tashkil etdi. Farqona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Respublikada Toshkent shahri va viloyatidan keyin 3-o'rinda turadi. Uning zimmasiga 12 foizdan ortiqroq mamlakat sanoat mahsuloti to'g'ri keladi. Jumladan viloyat O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlarning 15 foizini asbest- sement mahsulotining 1/3 qismini oyna-shishaning deyarli 90 foiz mebelning 11 foizi ipak-gazlamaning 37 foizni ip gazlamaning 16 foizini paypoq mahsulotining 42 foizini va poyabzalning 40 foizga yaqinini beradi. Viloyat sanoatining tarmoq tuzilishi ancha murakkab. Farqonada yengil oziq-ovqat kimyo va neft kimyosi qurilish materiallari sanoati va boshqalar yaxshi yaxshi rivojlangan. Jami sanoat mahsulotining 33 foizidan ortiqrog'i yoqilg'ini 24 foizini yengil va 10 foiz oziq-ovqat sanoatiga tog'ri keladi. So'ngi besh yillikni yakunlariga ko'ra yoqilg'i sanoatining mahsulot qiymati 47.4 foizi kimyo va neft kimyosi 5.8 foizi qurilish materiallari atiga 5 foizi yengil sanoat 22.6 foizi oziq-ovqat 9.9 foiz un-krupa omuxta yem sanoati 5.7 foizdan barobar bo'lgan. Ko'rinib turibdiki viloyatda sanoatining deyarli barcha tarmoqlari rivojlangan. Faqat mashinasozlik va metallni qayta ishlash metallurgiya tarmoqlarining ulishi pastroq xolos. Farqona viloyati O'zbekiston Respublikasi sanoati mahsulotning 12 foizini taminlaydi. Bu yerda mamalakat sanoatidagi ishlab chiqarish fondlarining qiymati bo'yicha 5.5 foiz va sanoatda band bo'lgan ishchi xodimlarining 11 foizi mujassamlashgan. Xususan yoqilg'i kimyo va neft kimyosi shisha-chinni sanoat tarmoqlarining hududiy mujassamlashuv darajasi yuqori 39.7 foiz; 13.3 va 65.8 foiz. Bularning har birini indeksi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlardan katta 3.13 foiz, 1.05 va 5.18 foiz. Bu sanoat tarmoqlari viloyatning ixtisoslashgan yo'nalishlari hisoblanadi. Shuningdek neftni qayta ishlash mineral og'it ishlab chiqarish to'qimachilik oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanganlik darajasi ham yuqori. Bilamizki Farqona viloyatida 40 ga yaqin ishlab turgan qo'shma korxonasi mavjud shundan 23 tasi sanoatda .Ularning barchasi 2019 yildagi ma'lumotlarda 42.4 mln AQSh dollari hajmida mahsulot eksport qilgan va bu viloyat eksportining 20 foizga yaqinini tashkil qiladi. Qo'shma korxonalarda 5100 kishi ishlaydi. Farqona viloyatida juda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari qad roslagan yirik issiqlik markazlari kimyo va neft kimyosi neftni qayta ishlash zabodlari azot va superfosfat ishlab chiqaruvchi korxonalar shu viloyatdadir. Farqona viloyatida yiliga 135 - 145 ming tonna neft 1.8 mln tonna benzin 1.8 mln tonna motor dizel yonilg'i 150 ming tonnaga yaqin mineral og'itlar 850 ming tonna atrofida sement taxminan 110 ming tonna paxta tolasi 58 mln m² ip va 2 mln m² ipak gazlama 12 mln juft paypoq 29.5 ming tonna tozalangan o'smlik yog'i 45 mln shartli bankadan ortiq turli konservalar ishlab chiqariladi .Bulardan tashqari bu viloyatda gaz plitalari mebel xo'jalik sovuni va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan .Farqona iqtisodiy geografik rayoni Farqona viloyatidan tashqari Andijon va Namanganni ham o'z ichiga oladi. Andijon viloyatiga to'xtaladigan bo'lsak viloyat 1941-yil 6-martda tashkil topgan.

Uning tarkibida hozirgi kunda 14 ta qishloq tumanlari Andijon, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'ston, Jalaquduq, Izboskan, Marhamat Oltinko'l, Paxtaobod, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon va Qo'rg'ontepa



tumanlari kiradi. Uning maydoni 4.30 ming km² va bu jihatdan Andijon viloyati Respublikada maydoni eng kichik viloyat hisoblanib respublika maydonining 1 foizini tashkil qiladi. Andijon viloyati sanoatiga to'xtaladigan bo'lsak bu viloyatda 51 ta yirik sanoat korxonasi bor Ular Respublikaning 1/10 ga yaqinini iqtisodiy geografik rayonni 1/3 sanoat mahsulotini ishlab chiqaradi. Bu viloyat O'zbekistonda yengil avto mobillar ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi. 10.5 foiz yengil sanoat mahsulotini elektrotexnika mashinasozlik qismlari ip-gazlama ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatgichlarga ega. Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasini elektr dvigatellar bilan taminlashda muhim ahamiyatga ega. Viloyat sanoati majmuasida mahsulot qiymati bo'yicha mashinasozlik va matallni qayta ishlash 53.3 foiz yengil sanoat 17.8 foiz hamda un krupa omuxta yem ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Viloyatda so'nggi yillarda 500-700 mln kvt elektr energiya 90-100 ming tonna neft 12-15 ming tonna tozalangan o'simlik yo'gi 100-102 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi. 2019-yilda Asaka zavodi konveriyadan hammasi bo'lib 246 ming tonna yengil avtomishana ishlab chiqarilgan. Asakadagi zavod qurilishi 1994-yilda boshlanib undan 1996-yilda birinchi o'zbek yengil mashinasi chiqarilgan. Umumiy loyiha quvvati bir yilda 200 ming dona mashinalar ishlab chiqarishga teng. Viloyatning asosiy sanoat markazlari Andijon, Asaka, Shaxrixon, Marhamat Xonaobod shaharlari hisoblanadi. Bugungi kunda tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari kichik va qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatib ishlab chiqargan mahsulotlarni bilan bozorni to'ldirmoqda hamda mahsulotlarni mulum darajada eksport qilmoqda. Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibida 1941-yil 6-martda tashkil topgan. U hozirgi vaqtda 11 tuman 8 ta shahar va 115 ta shaharchalardan iborat. Namangan viloyati- Kosonsoy Mingbuloq Namangan Norin Pop To'raqo'rg'on Uychi Uchqo'rg'on Chortoq Chust va Yangiqo'rg'on tumanlariga bo'linadi. Maydoni 7.44 ming km² yoki Respublika hududining 1.7 foizini tashkil qiladi. Aholosi so'ngi ma'lumotlarga ko'ra 2752.9 ming kishi bo'lib respublika aholisini 8.3 foizini tashkil qiladi. Ma'muriy markazi Namangan shahri. Namangan viloyatida ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Bu viloyat asosan yengil va oziq ovqat sanoatiga ixtisoslashgan ularning ixtisoslashuvi koeffisienti 2.9 va 1.75 yoki Respublika miqiyosida olganda mazkur tarmoqlar sanoatining o'rtacha holatidan yuqoriroq rivojlanganligi bilan farqlanadi. So'ngi ma'lumotlarga qaraganda yengil sanoat viloyat jami sanoat mahsulotini 37.9 foizini oziq-ovqat sanoati 31 foizini beradi. Bulardan tashqari qurilish materiallari sanoati ham birmuncha ajralib turadi. Viloyat 23 ming tonna neft 7.846 ming km² ip gazlama ipak gazlamalari 1.8 mln m² jun gazlamalari 119 ming tonna o'simlik yo'gi 83.7 ming tonna paxta tolasi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan shuningdek bu yerda qog'oz va gugurt ishlab chiqarish rivojlangan. Sanoatning rivojlanganlik markazi Namangan shahri bo'lib u viloyat sanoat mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi. Bu albatta mujassamlashuvning juda yuqori ko'rsatkichlaridir. So'ngi yillarda Kosonsoy tumanining sanoati ancha jadal rivojlanib bormoqda. U Pop tumani bilan birgalikda viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 1/4 qismini taminlaydi. Uchqo'rg'on To'raqo'rg'on Uychi Chust va Chortoq tumanlarida ham sanoat tarmoqlari rivojlanmoqda. Norin va Mingbuloq tumanlarining darajasi biroz pastroq ko'rsatgichga ega. Uchqo'rg'on paxta tozalash zavodi hamda to'qimachilik korxonalari mavjud. To'raqo'rg'on quruq meva tayyorlovchi hamda ekskavator tamirlovchi korxona, Kosonsoyda yengil sanoatning tarmoqlari rivojlangan. Hozirda Far'ona iqtisodiy geografik rayoni va o'z ichiga olgan viloyatlarini sanoatlari va



rivojlanganlik darajasini ko'rib chiqtik. Endilikda Farg'onani so'ngi besh yillikda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga to'xtaladigan bōlsak: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazlarining intogrfikasida Farg'ona viloyatining so'nggi besh yillikdagi rivojlanish natijalari keltirildi. Farg'ona viloyatining besh yillik ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining infografikasida Farg'ona viloyatining so'nggi besh yillikdagi rivojlanish natijalari quydagilar qator kuzatuvchilar tamonidan so'ngi yilda yuz bergan faol islohotlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishdagi asosiy o'zgarishlarni taqdim etishdi. 2017-2020 yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 14 foizga oshib 37.6 trln so'mni tashkil etadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8.0 trln so'mdan 21.7 trln so'mga 8 foizga oshdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 15 foizga 2016 yildagi 10.0 trln so'mdan 2020 yilda 22.1 trln so'mga o'sdi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 56 foizga 2016 yilda 34.3 mingdan 2020 yilda 53.6 minggacha oshdi. Besh yil davomida Farg'ona viloyatida 179 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Shu davr mobaynida viloyatda 4782 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi maktabgacha talim muasssalrida 12.3 ming maktablarda 30.1 ming shifoxonada 2.7 ming o'ringa mo'ljallangan koyeklar tashkil etildi. Viloyatning asosiy drayver sohalari sifatida sanoatda yengil sanoat qurilish materiallari (qurilish klasteri) ishlab chiqarish mevasabzavotlarni qayta ishlash sanoat zonalarini (kichik sanoat) tashkil qilish qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish chorvachilik parrandachilik bog'dorchilik uzumchilik issiqxona xo'jaliklar (jumladan aholi xonadonlarida)ni tashkil qilish xizmat ko'rsatish sohasini turizm (ichki turizm eko turizm hunarmandchilik) xalqaro avtomagstral yoki yoqasida xizmat ko'rsatish shaxobchalari mahallalarda 20 turdagi xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil qilish shuningdek shahar va tumanlarda infratuzilma va ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy parametrlari belgilab olindi. Viloyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida 1967 investitsiya loyihalari amalga oshirilib ularga 11.9 trln so'm mablag'lar ajratildi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Soliyev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. o'quv qo'llanma/mas'ul muharrir Z.Ahmadjonova. -T.: Universitet, 2003
2. Страны мира: Энциклопедический справочник. Смоленск: Русич, 2000.
3. Социально-экономическая география зарубежного мира Под ред. В. В. Вольского. -М.: КРОН-ПРЕСС, 1998.
4. R.X. Ergashev, Sh.Sh. Fayziyeva, S.N. Xamrayeva. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" Toshkent "Iqtisod-moliya" 2018
5. "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти.
6. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va madaniyatning o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya. Darslik. Toshkent "Noshir" 2019
7. Qayumov A.A. Qodirov R.B. Qishloq xo'jaligi geografiyasi va iqtisodiyoti.